O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Po‘stidan tozalangan bodom mag‘zini sotish va uning sifatini nazorat qilish

(DDP-21:2009, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart DDP-21:2025 “Concerning the marketing and commercial quality control of blanched almond kernels” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha Ishchi guruh

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining (UNECE) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha Ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni osonlashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, rentabellikni oshirish hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlarini hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar qo‘llaydi. Ular yangi meva-sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun bizning http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html veb-saytimizga tashrif buyuring.

Po‘stidan tozalangan bodom mag‘zi uchun amaldagi qayta ko‘rib chiqilgan standart Ishchi guruhning oltmish beshinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/2009/20 raqamli hujjatga asoslangan

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

PO‘STIDAN TOZALANGAN BODOM MAG‘ZINI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH

КАСАТЕЛЬНО СБЫТА И КОНТРОЛЯ КОММЕРЧЕСКОГО КАЧЕСТВА ОЧИЩЕННЫХ ОТ КОЖИЦЫ ЯДЕР МИНДАЛЯ.

CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF BLANCHED ALMOND KERNELS

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026 yil

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart Prunus amygdalus Batsch, syn. Prunus dulcis (Mill.) D.A. Webb turiga mansub navlardan yetishtirilgan mag‘izning po'stlog'i olib tashlangan, butun shirin bodom mag‘izlariga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu mahsulotlar bevosita iste’mol qilish uchun yoki keyingi qayta ishlovsiz iste’mol qilinadigan boshqa mahsulotlar tarkibiga aralashtirilishi mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsuloti sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

Ushbu standart tuzlash, shakar qiyomida ishlov berish, aromatizatsiyalash yoki qovurish orqali qayta ishlangan yoxud sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan, bodom mag‘izlariga bug‘da qisqa muddatli ishlov berish, shuningdek, ushbu nom ostida bozorga chiqariladigan achchiq bodom mag‘izlariga tatbiq etilmaydi.

II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi - tayyorlash va qadoqlash bosqichlaridan so‘ng, eksport nazorati bosqichida oqartirilgan (tozalangan) bodom mag‘izlariga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, agar standart eksport yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu standart talablariga rioya etishi uchun mas’ul hisoblanadi. Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni standartga muvofiq bo‘lmagan shaklda namoyish etishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki bozorga chiqarishi mumkin emas.

A. Minimal talablar[1]

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chegirmalarni hisobga olgan holda, po‘choqli bodom mag‘zi quyidagi belgilarga ega bo‘lishi lozim.

- butun: yengil shikastlanishlar nuqson deb hisoblanmaydi
- sifatli: chirish yoki sifatining yomonlashishi sababli odamlar tomonidan iste’mol qilish uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar chiqarib tashlanadi
- toza: begona moddalardan xoli bo‘lishi shart

[1]. Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari Namunaviy sxemaning III ilovasida keltirilgan. Bu ilovada quruq (po‘choqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘izlari) va quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar hamda nuqsonlarning ta’riflari berilgan. Batafsil ma’lumot uchun: https://unece.org/trade/wp7/DDP-Standards.

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

[2] Namlik miqdori Standart namunaning II ilovasida keltirilgan usullardan biri yordamida aniqlanadi: Quruq mahsulotlar uchun namlik miqdorini aniqlash. Nizoli holatlarda laboratoriya nazorat usuli qo‘llanilishi shart.

- yopishib qolgan po‘stloqning umumiy maydoni diametri 6 mm dan ortiq bo‘lmasligi kerak.
- yetarlicha rivojlangan: Haddan tashqari yassi va burishgan, qurib qolgan hamda qisqargan mag‘izlar, shuningdek, mag‘iz umumiy maydonining 25 foizidan ko‘prog‘iga ta’sir ko‘rsatgan suvsizlangan, qurigan yoki qotib qolgan qismlarga ega bo‘lgan mahsulotlar rad etilishi lozim.
- mag‘izning qolgan qismidan keskin ajralib turadigan hamda uning umumiy yuzasi ning 10 foizidan ko‘p qismini egallagan nuqsonlar, rangi o‘zgargan joylar yoki yoyilgan dog‘lardan xoli bo‘lishi lozim
- to‘g‘ri shakllangan (qo‘shaloq mag‘izlar uchun)
- oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or iplaridan xoli bo‘lishi lozim
- rivojlanishning qaysi bosqichida bo‘lishidan qat’i nazar, tirik zararkunandalardan xoli bo‘lishi lozim
- zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan, shu jumladan o‘lik hasharotlar va/yoki kanalar, ularning qoldiqlari yoki chiqindilari mavjudligidan xoli bo‘lishi lozim.
- tashqi noodatiy (ortiqcha) namlikdan xoli bo‘lishi lozim
- begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi lozim
- achchiqlanish belgilaridan xoli bo‘lishi lozim
- mahsulot diametri 6 mm dan ortiq bo‘lgan umumiy maydonni egallovchi yelimsimon (smolali) modda qoldiqlaridan xoli bo‘lishi kerak.
- Jigarrang tusli (Leptocoris trivittatus Say) kabi hasharotlarning chaqishi natijasida hosil bo‘lgan, umumiy maydonining diametri 3 mm dan oshadigan jigarrang tusli nuqsonlardan xoli bo‘lishi lozim

Po‘stidan tozalanagan bodom mag‘izlarining holati quyidagilarni ta’minlaydigan darajada bo‘lishi lozim:

- transportda tashish jarayonlariga bardosh bera oladigan
- tayinlangan manzildagi qabul qilib olish joyiga qoniqarli holatda yetib borishini ta’minlaydigan.

B. Namlik miqdori[2]

Po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlarining namlik miqdori 6,5 foizdan oshmasligi kerak.

C. Tasniflash

Po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlari “IV bo‘lim. Ruxsat etilgan chetlanishlar to‘g‘risidagi qoidalar”da yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarga muvofiq quyidagi sinflarga tasniflanadi:.

“Oliy” sinf, I sinf va II sinf

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Yo‘l qo‘yilgan nuqsonlar mahsulotning sifati, saqlanuvchanligi va qadoqdagi tovar ko‘rinishiga (taqdimotiga) nisbatan umumiy tashqi ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak.

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

Po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlarini o‘lchamlari bo‘yicha saralash ixtiyoriy hisoblanadi.

O‘lchamlari bo‘yicha saralanganda, mahsulot o‘lchami quyidagilardan biri orqali aniqlanadi:

- Elakdan o‘tkazish po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlarining ekvatorial kesimidagi minimal diametri bo‘yicha, dumaloq yoki cho‘ziq teshikli elaklar yordamida aniqlanadi.
- Donalar sonini hisoblash 100 gr yoki bir untsiya (28,3495 g) mahsulotdagi po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlarining soni bo‘yicha aniqlanadi.

(i) O‘lchamlarni saralash millimetrda ifodalangan, ruxsat etilgan farqi 2 mm dan oshmasligi kerak bo‘lgan minimal va maksimal o‘lchamlar oralig‘i bilan belgilanadi. Donalar soni diapazoni ko‘rsatilganda, po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlari o‘lchamlari bo‘yicha yetarlicha[3] bir xil bo‘lishi va donalarning o‘rtacha soni belgilangan diapazon doirasida bo‘lishi lozim.

(ii) Elakdan o‘tkazish natijalari millimetrda ifodalangan minimal o‘lchamga havola qilinib, ketidan “va plyus” so‘zlari yoki shunga teng kuchli boshqa iboralar qo‘shilishi orqali yoxud 100 gr yoki dona soniga hisoblash mag‘izlarning maksimal soniga havola qilinib, ketidan “va minus” so‘zlari yoki shunga teng kuchli boshqa iboralar qo‘shilishi orqali ifodalanadi.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Marketingning barcha bosqichlarida, ko‘rsatilgan sinf uchun belgilangan minimal talablariga mos kelmaydigan mahsulotlar to‘plamida sifat va o‘lcham bo‘yicha muayyan chetlanishlarga ruxsat etiladi.

A Sifat bo‘yicha qo‘yimlar

Yo‘l qo‘yiladigan nuqson	***Ruxsat etilgan chetlanishlar*** ***Nuqsonli po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlarining vazn bo‘yicha foiz ulushi***		
	Oliy sifat	*Birinchi sinf*	*Ikkinchi sinf*
a) Minimal talablarga javob bermaydigan po‘sti archilgan bodom mag‘izlari uchun ruxsat etilgan chetlanishlar, ulardan quyidagilardan ko‘p bo‘lmagan miqdorda	5	10	15
- Yetarli darajada rivojlanmagan so‘ligan	0.5	1.5	3
- Mog‘orlagan	0.5	0.5	1
- Achigan yoki zararkunandalar tomonidan shikastlangan, tovar xususiyatini yo‘qotgan.	3	5	10
- jigarrang dog‘lar, shikastlanishlar va rangining o‘zgarishi.	3	5	10

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

_____

[3]. O‘lchamlari bo‘yicha yetarlicha bir xil — vakillik namunasida, donalar soni bo‘yicha eng yirik butun mag‘izlarning 10 foizining og‘irligi, donalar soni bo‘yicha eng kichik butun mag‘izlarning 10 foizining og‘irligidan 1,7 baravardan oshmasligini anglatadi.

Yo‘l qo‘yiladigan nuqson	***Ruxsat etilgan chetlanishlar*** ***Nuqsonli po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlarining vazn bo‘yicha foiz ulushi***		
	Oliy sifat	*Birinchi sinf*	*Ikkinchi sinf*
- Achchiq bodomlar (donalar soni yoki og‘irligi bo‘yicha).	1	3	4
- Yorilgan, singan va yarimta bo‘laklar[4].	5	7	10
- Mayda bo‘laklar [5]	2	3	5
-Tirik zararkunandalar	0	0	0
(b) O‘lchamlar bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar			
O‘lchamlari bo‘yicha saralangan bo‘lsa, ko‘rsatilgan o‘lchamga muvofiq kelmaydigan (mos kelmaydigan) mahsulotlar uchun	20	20	20
c) Boshqa nuqsonlar uchun ruxsat etilgan chetlanishlar			
- Issiqlik ta’sirida shikastlanish	3	6	10
- Begona moddalar, shu jumladan alohida ajralgan, qobiq parchalari, yashil po‘stloq parchalari va chang (og‘irligi bo‘yicha).	0.10	0.15	0.20
-Qadoqda ko‘rsatilgandan boshqa sinfga va/yoki tijorat turlariga mansub bo‘lgan po‘stidan tozalangan bodomlar.	10	10	20
- Uchlari uchgan va tirnalgan[6]	5	10	15
-Yopishib qolgan po‘stloq qoldiqlari bo‘lgan mag‘izlar	2	3	6
-qo‘shaloq mag‘izlar[7].	5	15	20

V. Taqdimotga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning[4] tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat bir xil kelib chiqishga, sifatga, o‘lchamga (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa) hamda nav yoki tijorat turiga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) mansub po‘stidan tozalangan bodomlardan iborat bo‘lishi lozim.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun tarkibni ifodalovchi bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlari mahsulotning zarur darajada himoyalanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

[4] Bo‘lingan yoki singan mag‘izlar, bu mag‘izning to‘rtdan bir qismidan ko‘p bo‘lagi yo‘qolgan (ajralgan), mexanik shikastlangan mag‘izlardir. Yarimta mag‘iz, bu ikki yarim pallasi bir-biridan ajralgan, bo‘ylama bo‘lingan bodom mag‘izidir.

[5] Mag‘iz bo‘laklari diametri 10 mm bo‘lgan dumaloq tirqishli elakdan o‘tadigan, po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlarining bo‘lingan qismlari.

[6] Cheti uchgan mag‘izning to‘rtdan bir qismidan kam bo‘lagi ajralgan, shikastlangan mag‘izdir. Tirnalgan mag‘iz; agar tirnalgan joylarning umumiy maydoni diametri 3 mm bo‘lgan doira ekvivalentidan kam bo‘lsa, bu holat kamchilik deb hisoblanmaydi.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan darajada sifatli bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi, basharti matn chop etish yoki yorliq yopishtirish ishlari zaharli bo‘lmagan (toksinsiz) bo‘yoq yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lsa.

Qadoqlar „IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar “ bo‘limidagi toleranslar jadvaliga muvofiq, har qanday yot aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak.

C Qadoqlash

Po‘stidan tozalangan bodom mag‘izlari qoplar yoki konteynerlarda taqdim etilishi kerak. Har bir qadoq birligi ichidagi barcha chakana savdo paketlari bir xil vaznga (og‘irlikka) ega bo‘lishi shart.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[8] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, o‘qilishi oson, o‘chmas yozuvda va tashqaridan ko‘rinadigan tarzda keltirilishi lozim:

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi: to‘liq nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi va, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa davlat nomi) yoki milliy vakolatli[9] organ tomonidan rasman tan olingan kodli belgi.

B.Mahsulotning tavsifi

- “Po‘stlog‘idan tozalanagan bodom danaklari”-“Po‘stlog‘idan tozalangan bodom”
- Navi va/yoki tijorat turi nomi (ixtiyoriy).
- Qo‘shimcha tavsiflar (zaruratga qarab: “qo‘shaloqlarsiz” yoki “egizaklarsiz” va h.k.).

[7] Markirovkada “qo‘shaloqlarsiz” yoki “egizaklarsiz” deb ko‘rsatilgan hollarda, ushbu nuqsonlar uchun ruxsat etilgan chetlanishlar “Oliy” sinf uchun 1 foizgacha, I va II sinflar uchun esa 3 foizgacha kamaytirilishi lozim.

[8] Iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish uchun oldindan qadoqlangan mahsulot birliklari ushbu markirovka qoidalariga bo‘ysunmaydi, biroq milliy qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi shart. Shunga qaramay, qayd etilgan markirovka belgilari har qanday holatda ham ushbu qadoqlangan mahsulot birliklari joylashtirilgan qadog‘ida ko‘rsatilishi shart.

[9] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nomi va manzili aniq ko‘rsatilishini talab qiladi. Biroq, shartli kodli belgidan foydalanilgan hollarda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi" havolasi (yoki unga tenglashtirilgan qisqartmalar) ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda (bevosita yonida) ko‘rsatilishi shart. Shuningdek, agar

STANDARTLAR INSTITUTI#G645XUE2VR - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

ushbu mamlakat mahsulot kelib chiqqan mamlakat hisoblanmasa, kodli belgidan oldin uni tan olgan mamlakatning ISO 3166 xalqaro standartiga muvofiq harf kodi keltirilishi lozim

C. Mahsulotning kelib chiqish

- mahsulot kelib chiqqan mamlakat va ixtiyoriy ravishda, u yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.

D.Tijorat tavsifnomalari

- Sinf
- o‘lchami (agar saralangan bo‘lsa); quyidagilar orqali ifodalanadi:
- millimetrda o‘lchangan eng kichik va eng katta diametrlari, yoki
- ortidan “va undan yuqori” so‘zlari yoki shunga tenglashtirilgan boshqa ibora keladigan eng kichik diametri, yoki
- ortidan “va undan kam” so‘zlari yoxud shunga tenglashtirilgan boshqa ibora keladi gan eng katta diametri, yok
- 100 grammdagi yoki bir unsiyadagi eng kam va eng ko‘p dona soni.
- hosil yili (ixtiyoriy)[10]
- iste’molga yaroqli” yozuvi (ixtiyoriy).

E Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Adopted 2009

[10] Fransiyaning hosildor yili ko‘rsatilishini talab qiluvchi maxsus sharti

STANDARTLAR INSTITUTI #G645XUE2VR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI